

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY

XULOSA

017558105550

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Shavkan yo'l qurilish pudrat shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shahrizabz tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 30.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Shahrizabz tuman
yuridik markazi
markaz rahbari:



F.T.G'ANIYEV

01.12.2022

PUDRAT SHARTNOMASI

2«12»2022 yil.

282-4-67-OB/2022-son

Shaxrisabz tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor **J.Turdiyev** bir tomonidan va keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "**LOCHIN TIMSOLI**" **MCHJ** nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi **B.Ergashev** ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. Ta'riflar

1. Mazkur shartnomada tariflar qo'llaniladi:

"ijro hujjatlari": - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktsiya va detاللarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risida dalolatnomalar, ayrim ma'suliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risida dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risida dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa

hujjatlar: "berkitilgan ishlar": - sifati va yakunligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan

berkitiladigan ishlar:

shartnomani narxini bo'lib chiqish: ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatining aniq belgilangan holda shartnoma bo'yicha ob'ektni umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2 Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektda qurilish va ta'mirlash ishlarini smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan holda bajarish majburiyatini: Shaxrisabz tumani Shakarteri MFY Shavkan qishlog'i ichki yo'llarini asfalt qilish ishlarini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga bajariladigan ishlar uchun zarur sharoitlar yaratish, bajarilgan ishlarni qabul qilish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma bo'yicha pudratchi tomonidan bajarilgan tender natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (2022yil "24" noyabrdagi "189104" son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **1 160 000 000** (Bir milliard bir yuz oltmish million) so'mni tashkil etadi.

3.1. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

3.2 Tegishli asoslar mavjud bo'lganda o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatlari

4.1 Pudratchi mazkur shartnoma shartlarini so'zsiz bajaradi

4.2. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

4.3 Ob'ektdagi qurilish ishlari boshlanishdan oldin ob'ektda qurilish va ta'mirlash ishlarini

olib borish davri uchun, buyurtmachi ishtirokida qurilish va ta'mirlash ishlari bo'layotgan va undagi mavjud elementlarini dalolatnoma asosida ob'ektdan foydalanuvchi tashkilotdan qabul

qilib oladi va ta'mirlash ishlari yakunlangandan so'ng foydalanuvchi tashkilotga topshiradi.

Pudratchi tomonidan qurilish ishlari olib borilayotgan davrda ushbu ob'ekt qismidagi elementlarini saqlash ishlarini amalga oshiradi;

4.4 Ushbu qurilish ob'ektini qurish davrida elektr energiyasi, suv va tabiiy gazdan foydalanish zaruriyati bo'lgan taqdirda belgilangan tartibda tegishli tashkilotlar bilan shartnoma tuzish, to'lovlarini amalga oshirish, zarur hollarda ayrim ish turlarining bajarilishida smeta hujjatlarida belgilangan mashina-mexanizmlar o'rniga, o'rindosh mashina-mexanizmlardan foydalanilishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoriyasi va loyihachi tashkilotning tegishli xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin, xar qanday ish turidagi ushbu o'zgarishlar yuzasidan Buyurtmachini xabardor qilish

4.5 smeta hujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish hajmlari Pudratchi tomonidan to'liq va sifatli qilib bajarilib, ayrim ish hajmlari va xarajatlar smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajatlar bo'yicha qurilishi mumkin va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmlari xarajatlarini qoplash uchun ob'ektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi hujjatlar asosida Buyurtmachini xabardor qilgan holda yo'naltirishi mumkin va ushbu ish turlari tanlov ish xajmlarida bo'lsa narxlar tanlov narxlaridan olinishi, agarda tanlovda bo'lmasa smeta-hujjatlaridagi narxlardan olinib, bajarilgan ishlar hisob-fakturasida ko'rsatilishi lozim.

4.6 ob'ektning ijro xujjatlarini rasmiylashtirish va buyurtmachiga topshirish, qurilish

materiallarining muvofiqlik sertifikatini, ishlatilgan qurilish materiallari va uskunalarning texnik pasportini taqdim etadi;

4.7 shartnoma shartlariga asosan ob'ektning buyurtmachiga tasdiqlangan loyihaga muvofiq topshiradi;

4.8 barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda uning 1-ilovasida belgilangan ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda, o'zining kuchlari bilan qurilish qoidalari va me'yorlariga, belgilangan standartlarga amal qilgan holda sifatli bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi;

4.9 ob'ektga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, boshqa xom-ashyolar va qurilish texnikasini o'z vaqtida hamda zarur xajmlarda yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni amalga oshiradi;

4.10. zarur hollarda qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar quradi;

4.11. qurilish maydonida texnika va yong'in xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlaydi;

4.12. mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektning foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolarni bo'shatadi;

4.13. qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlaydi;

4.14. Oy-oy yoki bir oy davomida bajarilgan qurilish va ta'mirlash ishlari yuzasidan monitoring holatda hisob-fakturasini oyning 25 sanasigacha Buyurtmachiga taqdim qiladi;

4.15. Ob'ektida qurilish va ta'mirlash ishlari to'liq tugatilgandan keyin bajarilgan qurilish va ta'mirlash ishlari yuzasidan hisob-fakturaning to'liq taqdim qiladi;

4.16. mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.17. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javobgar hisoblanadi.

4.18. Bajarilgan va moliyalashtirish uchun qabul qilingan ish hajmlarida arifmetik xato va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlanganda, keyingi oylarda bajarilgan ish hajmlariga tegishli o'zgartirishlar (korrektirovka) kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

4.19. Pudratchi mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarning barcha xajmini shaxsan o'zibajaradi, quyidagi xolatlar bundan mustasno;

4.20. Shartnomada nazarda tutilgan ishlarning to'liq xajmiga ko'ra 60% kam bo'lmagan miqdorini o'zi va qolgan 40% dan oshmagan qismini yordamchi pudratchi tomonidan amalga oshirilishiga ruxsat berishini so'rab Obodonlashtirish boshqarmasiga qilingan murojaatga ko'ra undan rozilik xati olinganda;

4.21. Pudrat tashkiloti yuqorida ta'kidlab o'tilgan "Rozilik xati"ni olish uchun, umumiy ish boshlanishidan oldin Obodonlashtirish boshqarmasiga "Murojaatnoma" bilan murojaat qilishi shart;

4.22. Mazkur murojaatnomaga yordamchi pudratchi tashkilotiga doir xujjatlarni ilova qilishi, agarda ushbu yordamchi pudratchi tashkilot ishini to'liq va sifatli bajarishiga shubxabo'lib, ishning bir qismini bajarishga rozilik xati berilmagan ya'ni rad javobi berilgan taqdirda, boshqa yordamchi pudratchi tashkilotlar bo'yicha takliflar berishi yoki o'zi shaxsan bajarishi lozim.

4.23. Ushbu shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, qurilish ishlari amalga oshirilayotgan joylar va unga tutash bo'lgan xududlarda barcha turdagi xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya qilinishini ta'minlashiga javobgar xisoblanadi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

5.2. Ishlar bajarilishi ustidan doimiy texnik nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni, amaldagi qonunchilik xujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash;

5.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi: 5.2. Ishlar bajarilishi ustidan doimiy texnik nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni, amaldagi qonunchilik xujjatlariga muvofiq ravishda qabul qilib olishni ta'minlash;

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

6.1. Pudratchi mazkur shartnomani imzolangan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

6.2. Pudratchi ob'ektda qurish va ta'mirlash ishlarini 2023 yilning "16" "yanvar" kuniga tugatib, ob'ektni sifatli va to'liq qilib (tegishli barcha hujjatlar bilan birga) foydalanishga topshiradi. Moliyalashtirish yoki Buyurtmachiga tegishli boshqa sabablar bo'lganda Obodonlashtirish boshqarmasi ishchi tanlov komsissiyasining qaroriga asosan qurilish va ta'mirlash ishlari muddatiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

6.3. Pudratchi ishlarni 45 kunda amalga oshiradi.

6.4. Ishlarning boshlanishi 2022 yil 02-dekabr, tugatilishi 2023 yil 16-yanvar

6.5. Pudrat shartnomasi amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabr.

6.6. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

7.1. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun ishlarni bajarish (1-ilova) va moliyalashtirish (1-ilova) jadvallari asos hisoblanadi.

7.2. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha joriy (rejalashtirilgan) yilning ish qiymatining 15 foiz miqdorida avans mablag'i to'lab beradi.

7.3. Buyurtmachi va Pudratchi har oyda bajarilgan qurilish va ta'mirlash ishlarini "Ma'lumotnoma-hisob-faktura" bilan rasmiylashtiriladi, bunda ishlarning konstruktiv elementlari (turlari) bo'yicha fizik va qiymat ko'rsatkichlari 1-ilovaga asosan aks ettiriladi va "Mahalliy buyudjet va vazirlikning jamg'armasi" tomonidan mablag' ajratilgandan so'ng 2-ilovaga asosan moliyalashtiriladi.

7.4. Joriy moliyalashtirish har oyda amalda bajariladigan ishlar miqdoridan berilgan avans miqdorini ushlab qolib, ob'ektning shartnomaviy qiymati bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan amalga oshiriladi.

7.5. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

7.6. Ob'ektning shartnomaviy bajarilgan ishlar qiymatidan 5 foiz miqdoridagi mablag' mazkur shartnomada belgilangan kafolat muddati (ob'ektga tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib taqdim etilgandan) tugagandan so'ng, lekin kafolat muddati tugagan moliyaviy yil yakunlanmasdan oldin moliyalashtiriladi.

7.7. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 10 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritishni talab qilish yoki shartnomani bir tomonlama o'rnatilgan tartibda bekor qilish huquqiga egadir.

VIII. ISHLARNI BAJARISH

8.1. Buyurtmachi ob'ektida o'z vakilini - texnik nazoratchini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar hajmi va sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

8.2. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

8.3. Pudratchi texnik kuzatuvchini ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik kuzatuvchi Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan, ta'mirlash ob'ektida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

8.4. Pudratchi ob'ektida bajarilgan ishlarning hajmlarini ijro hujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni Buyurtmachi tomonidan mazkur ob'ekt uchun biriktirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 20 kundan 25 kunigacha ob'ektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni (belgilangan tartibda ijro hujjatlari bilan) oyning 25 kuniga qadar bajarilgan ishlar hisobotini "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi Loyihalarni moliyalashtirish va qurilishni tashkil etish bo'limiga topshiriladi.

8.5. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

8.6. Ob'ektida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

8.7. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

8.8. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

8.9. Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

8.10. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

8.11. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

8.12. Pudratchi o'zi tomonidan kurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

8.13. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qiladi.

8.14. Yopilib ketadigan ishlarni ularning har bir turi (bosqichi) bo'yicha qabul qilib olish ularning keyingi tur (bosqich) ishlari boshlangunga qadar bajarilishiga qarab amalga oshiriladi. Ishlarni quyidagi tarkibdagi komissiya qabul qilib oladi: Buyurtmachining vakili – texnik nazoratchi (rais), pudratchi tashkilot vakili – ish bajaruvchi yoki usta, laborant va geodezist (zarur hollarda), ob'ektga xizmat ko'rsatadigan yuqori tashkiloti vakili, loyiha tashkiloti vakili (ko'tarib turuvchi konstruksiyalarni qabul qilib olishda). Yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish natijalari o'rnatilgan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, unda qabul qilinadigan ishlarning loyiha, normativ-texnik hujjatlar, standartlar talablariga muvofiqlik darajasi aks ettiriladi, shuningdek qabul qilinadigan ishlarga baho va ishlarning keyingi turlarini bajarishga ruxsat beriladi. Dalolatnomaga o'lchovlar qaydnomasi va laboratoriya sinovlari natijalari ilova qilinadi.

8.15. Pudratchi Buyurtmachining qurilish va ta'mirlash ishlarini bajarilishini yuritish daftarlariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

8.16. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqdaxabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

8.17. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga va qiymatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

8.18. Ob'ektda kurilish jarayonida texnologik jarayon olib borilishining to'g'riligi, bajariladigan ishlar hamda foydalaniladigan materiallarning sifati yuzasidan texnik nazoratni amalga oshirish, shuningdek yopilib ketadigan va oraliq ishlarni qabul qilib olishda Buyurtmachi tomonidan komissiya tarkibida ishtirok etish uchun ushbu ob'ektdan foydalanuvchi tashkilotni jalb etilishi mumkin.

8.19. Ob'ektning bajarilgan ishlari va tugallangan ob'ektlarini oylik (oraliq) qabul qilib olish buyurtmachi va pudratchi tomonidan rasmiylashtiriladi. Bajarilgan ishlarni oylik (oraliq) qabul qilib olish natijalari belgilangan shaklda ma'lumotnoma-hisob-faktura bilan, miqdor va qiymat ko'rsatkichlari hisob-kitob jadvalida aks ettirilgan holda belgilangan shaklda rasmiylashtiriladi.

8.20. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning yordamchi pudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari va mablag'lari hisobidan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

8.21. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi.

8.22. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi qurilish-montaj ishlarini bajarilishini yuritish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, kunlik o'rtacha havo harorati va yog'ingarchiliklar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

8.23. Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

8.24. Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi

.IX. ISHLARNI QO'RIQLASH

9. Pudratchi ta'mirlash ishlari boshlanishidan tugallangungacha va qayta qurish ishlari tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan

qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

X. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

10.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat xodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy- iqtisodiy xolatlar (urush xolati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan xolatlardir.

10.2. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bundan qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

10.3. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

10.4. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

10.5. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. QURILISH VA TA'MIRLASH ISHLARI TUGALLANGAN

OB'EKTNI QABUL QILIB OLISH

11.1. Qurilish va ta'mirlash ishlari tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomaniimzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq, mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilish va ta'mirlash ishlari tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olish shaharsozlik normalari, qoidalari va standartlariga asosan amalga oshiriladi.

11.2. Qurilish ob'ekti yoki uning uchastkalari (ishga tushirish majmualari) ob'ektning tugallanganligi va u qabul qilib olishga tayyorligi to'g'risida pudratchi tashkilotning xabarnomasidan keyin jamoatchilik komissiya tomonidan foydalanishga qabul qilinadi.

11.3. Pudratchi tashkilot jamoatchilik komissiyaga quyidagi xujjatlarni taqdim etadi:- qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlarning turlari va hajmlari hamda mas'ul ijrochilari ko'rsatilgan holdagi ro'yxati;- yopilib ketadigan ishlarni qabul qilib olish dalolatnomalari;

11.4. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi asosida Buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilib olinadi.

11.5. Pudratchi qayta qurish tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Pudratchi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

11.6. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt davlat mulkiga aylanadi va o'rnatilgan tartibda ob'ektlardan foydalanish korxonasi balansiga o'tadi.

XII. KAFOLATLAR

12.1. Pudratchi:

- barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

12.2. smeta hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni sifatli bajarishni;

12.3. o'zi tomonidan qurilish va ta'mirlash ishlari uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning smeta hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlashga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

12.4. smeta hujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish hajmlari Pudratchi tomonidan to'liq va

sifatli qilib bajarilib, ayrim ish hajmlari va xarajatlar smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajatlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmlari xarajatlarini qoplash uchun ob'ektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi hujjatlar asosida Buyurtmachini xabardor qilgan holda yo'naltirishi mumkin va ushbu ish turlariga smeta-xujjatlarini tayyorlatish;

12.5. shartnomada belgilangan kafolat muddati mobaynida ob'ektdan foydalanish jarayonida nuqsonlar va chala qilingan ishlar aniqlanganda, o'z hisobidan bepul bartaraf etishni;

12.6. Ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

12.7. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qayta qurish tugallangan ob'ektни qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 oy etib belgilanadi.

12.8. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

12.9. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

12.10. Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

12.11. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha tegishli sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

13.1 Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin ishlarning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra. Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

13.2. ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda;

13.3. Pudratchi tomonidan bajarilgan kurilish va ta'mirlash ishlariga bajarilganligi yuzasidan xisob-fakturasini rasmiylashtirib bir oy ichida topshirilmagan xolda;

13.4. Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

13.05. Buyurtmachi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.6. Pudratchi:

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

13.7. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan ta'mirlash 15 kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

13.8. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

13.9. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

13.10. Shartnoma quyidagi xolatlardan biron-bittasi mavjud bo'lganda, shartnoma buyurtmachi tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin;

13.11. Shartnoma shartlariga rioya qilinmaganda yoki shartnoma shartlari buzilganda yoxud bajarilmaganda shuningdek sifatli bajarilmaganda;

13.12. Pudratchi shartnomada keltirilgan ishlarni kamida 70%ni shaxsan o'zi bajarish uchun yetarli kuch va vositalarga ega emasligi ma'lum bo'lgan vaqtdan boshlab;

13.13. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan ishlarning to'liq xajmiga ko'ra 60% kam bo'lmagan miqdorini o'zi va qolgan 30% dan oshmagan qismini yordamchi pudratchi tomonidan amalga

oshirilishiga ruxsat berishini so'rab Obodonlashtirish boshqarmasiga murojaatnoma yozish tartibini buzganda, ya'ni murojaatnoma umumiy ish boshlanishidan oldin yozilmaganligi;

13.14. Pudratchi umumiy ish boshlanishidan oldin o'z imkoniyatlari umumiy ish xajmining 60%ni shaxsan o'zi tomonidan amalga oshirishga yetmasligini yashirganligi.

XIV. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

14.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

14.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

14.3. Qurilish va ta'mirlash ishlarini olib borayotgan Pudratchi tashkilot qonunchilikka asosan va shartnomaga muvofiq buyurtmachi oldida quyidagi ishlar bo'yicha mulkiy javobgardir:

- sifatsiz bajarilgan qurilish va ta'mirlash ishlari;
- ob'ektning hamda uning bosqichlari va navbatlarini belgilangan muddatda tugallamagani
- ;- buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida qurilish va ta'mirlash xamda boshqa ihtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan uskunalarni montaj qilish muddatlari buzilishi;
- ob'ektning smeta xujjatlarida belgilangan yerlarni rekul'tivatsiya qilish ishlari bajarish hajmlari va muddatlarining buzilishi;
- qurilish va ta'mirlash jarayonida yoki oraliq qabul qilishda pudratchi, mualliflik nazorati va boshqa nazorat organlari tomonidan aniqlangan konstruksiya va ishlardagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda nuqsonlarni bartaraf etishni orqaga surish;
- shartnomada ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarmagani yoki to'la-qonli bajarmagani.

14.4. Pudratchi tashkilot tomonidan ishlarning bajarilishida pudrat shartnomasidan chekinish yoki boshqa kamchiliklar mavjudligida Buyurtmachi, agar qonunchilik yoki shartnomada boshqa shartlar ko'zda tutilmagan taqdirda, pudratchi tashkilotdan o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

- nuqsonlarni oqilona muddatlarda o'z hisobidan bartaraf etishni;
- Agar Pudratchi tashkilot nuqsonlarni kelishilgan muddatlarda bartaraf etmasa, Buyurtmachi yoki ob'ektdan foydalanuvchi tashkilot o'z kuchi bilan Pudratchi xisobidan nuqsonlarni bartaraf etish hamda nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilmaganligidan keltirilgan zararni va bajarilgan ish qiymatini undirish xuquqiga ega.

14.5. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi moliyalashtirilmagan mablag kiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

14.6. Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.7. Moliyalashtirishning kechikishi "Mahalliy byudjet hamda vazirlik jamg'armasi" ning aybi bilan sodir etilsa, moliyalashtirish bo'yicha "Buyurtmachi" "Pudratchi" ning oldida javobgar bo'lmaydi.

14.8. Pudratchi tomonidan ob'ektning o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha majburiyatlar buzilgan bo'lsa Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

14.9. Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi kerak.

14.10. Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

14.11. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachining xulosasi asosida ob'ektning qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati

zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.
14.12. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur badda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

14.13. Buyurtmachi Pudratchining bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblarlardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachiga qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmasa, Buyurtmachi ushbu mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

14.14. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

15.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. ALOHIDA SHARTLAR

16.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

16.2. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, yordamchi pudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

16.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

16.4. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

16.5. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

16.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

16.7. Mazkur pudrat shartnomasi tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarguncha amal qiladi.

16.8. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 3 nusxada tuzildi.

XVII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI

BUYURTMACHI:

Shaxrisabz tumani hokimligi
Obodonlashtirish boshqarmasi
Manzil: Shaxrisabz tumani Aspi
Jallob ko'chasi 76 uy
Bank: Markaziy BBXKKM
xp:401722860102457045204110010
MFO: 00014 STIR: 206933094

Raxbar: _____ J. Turdiyev

PUDRATCHI

"LOCHIN TIMSOLI" MCHJ
Shaxrisabz tumani Tutzor MFY
Tutzor ko'chasi
HR 20208000304726036001
STIR 300908442
MFO 01048


Bank Ipak yo'li bank Shaxrisabz filiali

Rahbar _____ B.Ergashev



(ИМЗО)

M.Y.

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	JAMSHID TURDIYEV NE'MATULLAYEVICH
	Imzolangan sana	02.12.2022 08:53
	Hujjat kodi	SI8161368432
	Hulosa kodi	OI7558105550



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"LOCHIN-TIMSOLI" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"LOCHIN-TIMSOLI" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

11.08.2008

7368

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

300908442

Tashkiliy-huquqiy shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz sh., Kulollik ko'chasi 2 uy,

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz sh., DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomondan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing to'liq nomi):

